IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI DAVR

Nabiyev Hasan
Guliston davlat pedagogika instituti,
Gumanitar fanlar va jismoniy madaniyat fakulteti,
Tarix yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda urushdan keying davr hayoti, yerlarning tortib olinishi , paxtachilik siyosatining yangi to'lqini , viloyat , kalxo'z va savxo'zlarning tashkil qilinishi hamda O`zSSR TIV haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: temir qo'rg'on , iqtisod, O'zbekiston, Sovet, sanoat , paxtachilik, TIV.

Urushdan so'ng fashizim ustidan qozonilgan g'alabaga katta hissa qo'shgan O'zbekiston xalqlari oldida harbiylashgan xalq xo'jaligini tinch qurilish yo'liga solish , uni urishdan oldingi darajaga yetkazish va rivojlantirish kabi murakkab vazifalar turardi.

Urush davridagi harbiy-iqtisodiy hamkorlik tajribasi urushdan keyingi vayron bo'lgan iqtisodiyotni tiklash va rivojlantirishda ham G'arb davlatlari bilan hamkorlik qilish zarurligini ko'rsatdi.Lekin haddan tashqari mafkuralashgan sovet tizimi respublikalarni xorijiy mamlakatlardan "Temir qo'rg'on" bilan ajratib, mamlakatni ortiqcha qiyinchiliklar va qurbonga mahkum etdi.Sobiq Ittifoq boshqa mamlakatlardagi tiklanishning ilg'or tajribalaridan, chet el sarmoyalaridan foydalanishni istamadi. Amerika Qo'shma Shtatlarida qabul qilingan "Marshall plani"asosida ajratilgan taxminan 50 mlrd dollor Yevropa mamlakatlarining iqtisodini o'nglab, hayot darajasini ko'tarishga ,ilg'or texnologiyalarni joriy etishda hal qiluvchi kuch bo'ldi.Sovet davlatining g'oyat mafkuralashgan iqtisodiy siyosati esa yakkalanib qoldi va bu xalqimizning boshiga ortiqcha kulfat olib keldi.

O'zbekiston urushdan keying yillarda o'z xalqining arzon kuchidan, boy xomashyo manbalaridan cheksiz ravishda foydalanishiga asoslangan, kompartiya chizib bergan besh yillik rejalarni bajarishga kirishdi.

Iqtisodiyot oldiga qo'yilgan eng muhim vazifalar O'zbekiston SSR Oliy Kengashining 1946-yil avgustida chaqirilgan 8- sessiyasida qabul qilingan 1946-1950-yillarga mo'ljallangan rejada belgilandi. Bunga ko'ra xalq xo'jaligining barcha sohalariga 3 mlrd 900 mln so'm kapital mablag' ajratildi.Sanoatni rivojlantirish ishlari respublika iqtisodiyotining yetakchi sohasi paxtachilikni rivojlantirishga qaratildi.

Elektr quvvati ishlab chiqarishga alohida e'tibor berildi.5 yilda 8 ta yirik va o'rta hajmdagi elektrostansiyalar, shu jumladan 300 000 kv soat kuchga ega bo'lgan Farhod suv elektr stansiyasi ishga tushirildi. Bu stansiya sobiq ittifoqda uchinchi o'rinda bo'lib

, urushgacha O'zbekistonda ishlab chiqarilgan elektr quvvatiga teng quvvat beradigan bo'ldi. O'zbekiston xalqi iqtisodni tiklash va rivojlantirish yo'lida ham hormay-tolmay mehnat qildi. Besh yilda sanoat mahsulotining yalpi hajmi 71 %ga ko'paydi, bu urushdan oldingi darajadan 1,9 barobar ko'p edi.[1]

Sovet hokimiyatining dastlabki yillaridanoq boshlangan qishloq aholisini yerdan mahrum qilish jarayoni urushdan keyin ham davom etdi. 1946-yil sentyabrda VKP(b) MQ va SSSR hukumatining " kolxozlarda qishloq xo'jalik ustavining buzilishini tugatish choralari to'g'risida "qarori e'lon qilindi .Kolxozlar manfaatlarni himoya qilish bayrog'i ostida respublika qishloqlarida istiqomat qilayotgan 50 ming kolxozchi oilasi qo'lidagi tomorqa yerlaridan 25 ming gektari ustavda belgilanganidan "Ortiqcha " deb tortib olindi . Kolxoz hududida yashagan, ammo unga a'zo bo'lmagan 20 ming xo'jalikning go'yo "Qonunga xilof" ravishda egallagan 2,5 ming gektar yerlari ham tortib olindi. Qishloq aholisini yerdan mahrum etish jarayoni 50-yillarda ham davom etdi.

O'zbekiston iqtisodiyotini bir tomonlama rivojlantirish, uni mamlakatni asosiy paxta bazasiga aylantirish , bu hududda paxta yakkahokimligini kuchaytirish Ittifoq hukumdorlarining bosh maqsadiga aylandi. SSSR XKS va VKP(b) MQning 1945-yil 15-iyuldagi " O'zbekistonda paxtachilikni qayta tiklash va yanada yuksaltirish rejasi va tadbirlari to'g'risida" qabul qilgan qarorlari ham shu maqsadga qaratilgan edi . Sobiq KPSS MQ va SSSR Ministrlar Sovetining 1956-yilgi "paxta yetishtirishni ko'paytirish uchun O'zbekiston SSR va Qozog'iston SSRdagi Mirzacho'l qo'riq yerlarini sug'orish to'g'risida"gi, 1958-yilgi " O'zbekiston SSR , Qozog'ston SSR va Tojikiston SSRdagi Mirzacho'lni o'zlashtirish ishlarini yanada kengaytirish va jadallashtirish to'g'risida "gi qarorlariga asosan Mirzacho'lda katta maydonlarda qo'riq yerlarni o'zlashtirish ishlari olib borildi. 1956-65 -yillarda Mirzacho'lda 84 ming gektar yangi yer o'zlashtirildi. O'zbekiston SSRda 1777 ta mayda kolxozlar o'rniga 752 ta yirik kolxozlar tashkil etildi.Janubiy Mirzacho'l kanali qurildi. 1957-yilda Yangiyer va 1961-yilda Guliston shaharlari vujudga keldi. 1963 -yil 16 fevralda markazi Guliston shahri bo'lgan Sirdaryo viloyati tashkil etildi .Buxoro viloyatida 1963-yilda Amu-Qorako'l mashina kanali , 1965-yilda Amu-Buxoro mashina kanali qurilib foydalanishga topshirildi. 1973-yilda Jizzax viloyati tashkil etildi. Jizzax cho'lida 70 ming gektardan ko'proq yangi yerlar o'zlashtirildi. O'zlashtirilgan yerlarda Mirzacho'l (1967) , Do'stlik (1970), Zafarobod (1973) , Arnasoy (1977), tumanlari tashkil etildi.[2]

Paxtachilikni rivojlantirish uchun mineral o`g`itlardan foydalanishga katta e`tibor qaratildi.Respublikada 1951-yilda 0,9 mln tonna mineral o`g`it ishlatilgan bo`lsa, 1980-yilda uning miqdori 5 mln tonnadan oshib ketdi.

G`o`za barglarini to`kish va zararkunandalarga qarshi kurshda ishlatilgan o`ta zaharli ximikatlar (butifos,merkoptafos va b) dan haddan tashqari keng miqyosda foydalanish aholi sog`liqiga keskin yomon ta`sir qildi.

Duniy bo`yicha pestitsidlar har bir kishiga 300 grdan,AQSh 800 grdan to`g`ri kelgan bo`lsa ,respublikaning paxta ekiladigan hududlarida har bir kishiga 1989-yil 25-45 kg dan to`g`ri keldi.Resbublika bo`yicha bo`lsa, bun har bir kishiga 7-8 kg ni tashkil etdi.Paxta xomashyosi yetishtirsh 1946-1985-yillarda 5,5 barobar ko`paydi,paxta ekiladigan maydonlar 1 mln ga dan ortdi.1966-1986-yillar mobaynida O`zbekiston qishloq xo`jaligiga 45 mlrd so`m mablag` ajratilgan bo`lib, shundan 17,1 mlrd so`mi sug`orish tarmoqlariga sarflandi.Shu davrda 1,5 mln ga yer o`zlashtirildi.O`zlashtirilgan yerlarda yangi 160 ta sovxozlar tashkil etilgan bo`lib, 20 yil davomida bu yerlarda 10,4 mln tonna paxta xomashyosi yetishtirildi.

O`zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari " Sotsializm uzil-kesil g`alaba qilgan " davrda aholining jon boshiga hisoblaganda quyidagicha edi:

Go`sht 29 kg, sut 150 litr, tuxum 78 dona, qand-shakar 21,2 kg, kartoshka 28 kg, sabzavot va poliz mahsulotlari 66 kgdan to`g`ri keldi.Bu miqdor umumittifoq darajasidan ancha past edi.Qishloq aholisining iste`mol darajasi bu o`rta hisobdan ko`ra yana ham kam edi.

O`zbekistonda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda xatolarga ham yo`l qo`yildi.Xususan Toshkent va Toshkent viloyatida yirik sanoat korxonalari qurilib, sanoat ishlab chiqarish joylashtirishda nomutanosiblikni keltirib chiqardi.1955-yil dekabrda O`zbekiston Kompartiyasining birinchi kotibi lavozimiga avval Vazirlar Kengashining raisi vazifasida ishlagan Nuriddin Muhiddinov saylandi.Shu davrdagi ko`plab ijobiy o`zgarishlarda N.Muhiddinovning shaxsan hissasi katta bo`ldi.Uning tashabbusi bilan Markaz qarmog`idagi yuzlab sanoat korxonalari respublika ixtiyoriga o`tqazildi.1960-yillarda O`zbekiston sanoatida bir qancha o`zgarishlar yuz berdi.1959-1965-yillar 450 dan ziyod sanoat korxonalari (shundan 150 yirik) va sexlar ishga tushirildi.Toshkent (birinchi navbati) Navoiy, Taxiatosh issiqlik elektrostansiyalari, Gazli gaz koni shular jumlasidandir.Respublika aholisining aksariyat ko`pchiligi tabiiy gazga muxtojligini qondirish va butun iqtisodiy ishlab chiqarishni gazlashtirish asosida qayta qurish mumkin bo`lgan sharoitda chetga tabiiy gazni olib ketish avj oldi.O`zbekiston tabiiy gazi sobiq ittifoqning Yevropa qismi,Ural,Qozog`iston, Tojikiston, Boltiq bo`yi mamlakatlari va boshqa mintaqalarga uzluksiz jo`natib turildi.Vaholanki,tabiiy gaz yetishtirish Respublikada yildan yilga oshib bordi.Masalan 1960-yilda 447 mln m3 hajmda tabiiy gaz olingan bo`lsa, 1970-yilga kelib bu miqdor 32 mlrdni tashkil qildi.[1]

40-yillarning ikkinchi yarmida O`zbekistonda respublika tashqi siyosiy idorasi tashkil qilindi.1944-yildan xalq Komissariati nomidan,1946-yildan O`zbekiston Tashqi ishlar vazirligi sifatida ish olib bordi.Uning asosiy vazifalari xorijiy mamlakatlar vakillarini respublikaning tarixiy-madaniy diqqatga sazovor joylari bilan tanishtirish uchun qabul va kuzatuvchilik faoliyati bilan bog`liq rasmiy-protokol xarakterida edi.TIV quruq targ`ibot va texnik yordamchi sifatida faoliyat olib

borardi.Xususan 1947-yilda Toshkentda bo`lib o`tayotgan Sovet-afg`on chegarasi demokratiyasi bo`yicha qo`shma komissiya ishi paytida O`zbekiston SSR TIV o`z binosini foydalanish uchun taqdim qildi,lekin o`zi bevosita ishtirok etmadi.Uning butun Shtat tarkibi soni, vazirdan boshlab texnik xodimlargacha 10 kishidan ortmas edi.

Umuman,birorta itttifoq qonunchilik hujjatida Ittifoqdosh respublikalarning xorijiy davlatlar bilan SSSR TIVni chetlab o`tib munosabatlar o`rnatish tartibini belgilovchi normalar mavjud emas edi.Respublikalardan birortasiga ham xorijiy davlatlar bilan diplomatik konsullik munosabatlari o`rnatish yoki shunday vakillar bilan almashishga ruxsat berilmagan.O`zbekiston 1950-1980-yillarda gippermarkazlashgan davlat - SSSRning suverenlikdan mahrum,o`zining unitar tabiatini " teng huquqli davlatlarning fedarativ tuzumi " iborasi bilan niqoblangan holda yashashda davom etdi.[3]

1958-yili O`zbekiston dunyoning 32 mamlakatiga sanoat va qishloq xo`jalik mahsulotlarini chiqargan bo`lsa,1970-yil 76 ta mamlakat bilan savdo aloqalarini o`rnatdi.Chet davlatlarga mahsulot chiqarishda O`zbekiston Sobiq Ittifoqda RSFSR va Ukrainadan keying uchinchi o`rinda turdi. Qorako`l teri va paxta tolasidan boshlab, mashinasozlik mahsulotlarining 250 ta turi to`rt qit`aning deyarli hamma mamlakatlariga chiqarildi. Ming afsuski bu mahsulotlar O`zbekisaton nomidan emas "SSSRda ishlangan" degan tamg`a bilan dunyoga tanildi.[1]

Foydanilgan adabiyotlar:

1.O`zbekiston tarix G`ulomov I.K 106,107,109,110,111,113-betlar
2.O`zbekiston tarix Q.Usmonov,M.Sodiqov 178,179,204-betlar
3.O`zbekiston tarix 7-jild D.Yusopova, A.Ahmedov, X.To`rayev 344,345-betlar